

Toshkent kimyo- texnologiya institutida energetika va uning zamonaviy muammolari yo‘nalishlarida ta’lim va ilmiy tadqiqot sohasida bajarilgan  
**TADBIRLAR**

Mamlakatimizda oliy ta’limni rivojlantirishning 2030-yilgacha mo‘ljallangan dasturi, hamda “O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minalash konsepsiysi”da ko‘zda tutilgan vazifalardan kelib chiqib 2022-2023 yilda Toshkent kimyo-texnologiya instituti “Fizika va elektrotexnika ” kafedrasida asosida “60710500- Energetika” bakalavr ta’lim yo‘nalishi tashkil etildi. Bu yo‘nalish kimyo va oziq- ovqat sanoati ishlab chiqarishining energetika ta’minoti va sohaga muqobil energetika manbalarini qo‘llash masalalariga qaratilgan.



Talabalar Parkent tumanidagi Quyosh ilmiy markazida tanishuv amaliyotida


Energetika ta’limi yo‘nalishi mutaxassisligida talabalar mamlakatimiz kimyo va oziq ovqat ishlab chiqarish sanoatining texnologiyalari va ular qurilmalarining energetik xususiyatlardan kelib chiqib o‘qitiladi. Shuningdek mutaxassislik sanoat miqyosida energiya yig‘ish va muqobil birlamchi energetika manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish muammolarini ham o‘rganadi. Ta’lim dasturi va mutaxassislikning “Malaka talablari” tegishli tartibda rasmiylashtirilib tasdiqlangan.

Institutning “Fizika va energetika” kafedrasi bugungi kunda “Elektrotexnika”, “Elektr mashinalari”, “Elektronika asoslari”, “Elektr o‘lchov asoslari” kabi mutaxassislikning asosiy fanlari bo‘yicha zarur o‘quv laboratoriya uskunalarini bilan jihozlangan.



### O‘quv va ilmiy laboratoriya xonalari

Laboratoriya darslari zamonaviy o‘quv laboratoriya uskunalarini asosida olib boriladi. Ilmiy izlanishlar energetik jarayonlarning fizikaviy qonunlari va ularni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.



Elektr mashinalari va energetik samaradorlik mavzularining laboratoriya ishlari uskunalarini



Institutning “Fizika va energetika” kafedrasida bugungi kunda 4ta o‘quv laboratoriya xonalari mavjud, ularda 20 dan ortiq laboratoriya ishlari elektr energetikasi, muqobil energetika va energetik samaradorlik masalalariga mavzular qaratilgan.

### **Institutning mamlakatimiz sanoat korxonalari bilan hamkorligi**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 28- yanvar 48-sonli «Ta’lim xizmatlari» bozorini shakllantirish va marketing sohasida kadrlar tayyorlashni jadallashtirish tartiblari to‘g‘risidagi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 17 -avgustdagи O‘zbekiston Respublikasi 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PK-325-sonli qarori, hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2007-yil 10-martdagи «OTMning ta’lim xizmat servis sohasini rivojlantirish faoliyatida samaradorlikni oshirish to‘g‘risida» gi 98 - sonli buyrug‘ini bajarish, va ularda ko‘zda tutilgan vazifalardan chiqib institut kafedralarida sanoat korxonalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Shu maqsadda, mamlakatimizning yirik kimyo sanoati korxonalari bilan ikki tomonlama shartnomaga asosida korxona xodimlarini o‘qitish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, 2022- yil davomida “MAXAM Chirchiq” va “Qo‘ng‘irot soda” MCHJ qo‘shma korxonalarining elektrik xodimlari va energetik mutaxassislari tizimli ravishda o‘qitib borildi. Darslar tegishli kafedralarning yuqori malakali professor-o‘qituvchilari tomonidan olib borildi va malakalari oshirilganligi haqida tegishli sertifikatlar berib kelinmoqda.





Qo‘ng‘irot soda zavodi energetik xodimlarini malakasini oshirish



Qo‘ng‘irot soda zavodidagi nazariy va amaliy dars jarayonlari

Institutning “Fizika va energetika” kafedrasida energetik tizimlarga bevosita aloqador bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi:

- texnologik tizimlarning energetik samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish;
- energiya rekuperatsiya va elektr energiyasmi ishlab chiqarishda muqobil manbalardan foydalanish;
- energetika fanlarini o‘qitishning yangi, zamонавиу didaktik materialларини тайyorlash va ular asosida texnik fanларни o‘qitishning amaliy samaradorligini oshirish.



Shaxsiy sektorda muqobil energetika manbalarini qo'llash

### **Mamlakatimiz energetika tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ularning huquqiy asoslari va asosiy vazifalari**


Mamlakatimizda 2012-2019 yillar davomida elektr energiyasi ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 2,5 % o'sishni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda yillik o'sish surati 6 % ni tashkil etib, yillik elektr energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichi 70 mld.kVt soatni tashkil etdi. Lekin shunga qaramay 2021-2022 yillar davomida mamlakatimizda energetik taqchillik sezilmoxda. 2030-yilga borib yillik energiya iste'moli 75% ga o'sib 120mld kVt soat bo'lishi kutilmoqda.

2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasida belgilanishicha bu energiyaning 26 % qismi qayta tiklanuvchi ([//minenergy.uz/uz/lists/view/77](http://minenergy.uz/uz/lists/view/77)) manbalar hisobidan bo'lishi rejalashtirilgan. Lekin bugungi kunda bu ko'rsatkich 2% ga ham yetmagan. Vaholanki jahon miqyosida o'rtacha ko'rsatkich 19% ni tashkil etadi. Bundan ko'rindaniki keyingi 10 yillikda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini mislsiz darajada rivojlantirish talab etiladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz energetika siyosatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (mutaxassislar tayyorlash, texnologiyalar yaratish, amaliy va ilmiy loyihalarni moliyalash kabi) bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Shuning uchun ham, 2022-2023 yillar davomida sanoat, byudjet korxonalarda keng miqyosda quyosh elektr stansiyalari o'rnatildi, va bu ishlar yana bir necha yil davom etadi. Lekin bunda tayyor texnologiyalar va standart modullar ishlatilmoqda. Shuning uchun ham energetika tizimlarida bu qurilmalarni ishlatish, yangilarini qurish, ularni ichki imkoniyatlarga moslashtirish, xizmat ko'rsatish, lokal tizimlarni va ularni ulanishlarini tashkil etish kabi ko'plab texnik

masalalar yuzaga kelmoqda. Bu o‘z navbatida muqobil energetika va sanoatda energetika samaradorligi yo‘nalishlari bo‘yicha tor soha yo‘nalishlaridagi mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Institutda aynan shu munosabat kimyo sanoati ehtiyojlari uchun muqobil energetikaga yo‘naltirilgan energetiklarni tayyorlash amalga oshirilmoqda.

Kimyo va oziq -ovqat sanoati ishlab chiqarish korxonalari uchun “6071100-Muqobil energiya manbalari (kimyo sanoati energetika resurslari)” mutaxassisligining bakalavriat ta’limi yo‘nalishi xususiyatlari va bitiruvchilarining ishlab chiqarishdagi faoliyati yo‘nalishlari quyidagicha: Korxonalarda elektr ta’midot va energetik (elektr, issiklik, kimyoviy, mexanik) samaradorlikning ilmiy-amaliy masalalari;



-Kimyo sanoati korxonalarida texnologik qurilmalarning energetika samaradorliklarini taxlil qilish –energetik audit;

-Korxonalarda elektr ta’moti tizimlarida gibrif texnologiyalarni qo’llash va ichki energetika resurslarini ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirish-energiya rekuperatsiya tizimlari.


Ob’ektlar va texnologik qurilmalardagi energiya almashinushi jarayonlari va ularning energetik samaradorliklarini zamonaviy texnik vositalar asosida o‘rganish bu tizimlarni ilmiy asoslarda o‘rganish va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatini beradi. Institutda aynan shu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.



Energiya almashinuvni jarayonlarini infraqizil sohada tahlil qilish

Energetika ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilar va ishlab chiqarishdagi ushbu soha muhandislarining ilmiy izlanish va ishlab chiqarish yo‘nalishidagi faoliyatlarining ustuvor yo‘nalishlari:

- Kimyo sanoati chiqindilari asosida energiya tejamkor materiallar yaratish;
- Kimyo va oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarishining mavjud energetika resurslaridan foydalanish samaradorliklarini oshirish;
- Issiqlik va elektr energiyasini yig‘ish va saqlashning yangi (kimyoviy asoslardagi) usullarini ishlab chiqish va uni elektroenergetika sanoatiga qo‘llash;
- Korxonalarining, texnologik qurilmalarning xususiy energiya iste’moli tizimlari va ularda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.




Kimyoviy jarayonlar va energetikani yagona ob’ekt sifatida o‘rganish va o‘qitish

Institutda o‘qish davomida talabalar tabiiy, umumkasbiy fanlardan tashqari elektroenergetika va kimyo sanoati uchun ahamiyatli bo‘lgan quyidagi mutaxassislik fanlarining zamонавиј holatini o‘рганади

Elektrotexnika va elektromexanika

Elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish  
Elektr mashinalari  
Sanoat elektronikasi asoslari  
Muqobil energiya manbalari fizik asoslari  
Elektrokimyo  
Quyosh energetikasi va uning elementlari  
Shamol energetikasi va gidroenergetika  
Kimyo sanoati energetika qurilmalari  
Sanoat korxonalari elektr ta'minoti  
Bioenergetika asoslari  
Energiya tejamkorlik asoslari  
Elektr toki kimyoviy manbalari  
Elektr va issiqlik energiyasini zahiralash  
Vodorod energetikasi.


### **Qo'shimcha kasblar o'rghanish**



“Elektr asboblarini ta'mirlovchi” “Elektr payvandlovchi” xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida eng zarur va o'lmas kasblardandir.

O'qish davomida talabalar institutda tashkil etilgan turli kasbga o'rgatish to'garaklarida ishtirok etib “Elektromontyor” va “Maishiy elektr jixozlar ta'miri ustasi” kabi kasb sirlarini o'rganadi. Bu kasbda ular barcha turdag'i maishiy elektr jihozlarini ta'mirlash, binolar elektr ta'minoti tizimlarini qurish va elektr payvandlash ishlarini amalda o'rganadilar.

## Talabalik davri va undan keyingi ilmiy faoliyat



Institutda “Fizika va energetika” kafedrasi va unga yondosh boshqa kafedralar bilan hamkorlikda “Muqobil energiya manbalarining fizikaviy asoslari tadqiqoti”, “Issiqlik va elektr energiyasini yig‘ishning texnologik va element asoslarini yaratish”, “Xususiy sektor va sanoat korxonalarida energiya tejamkorlik masalalari” hamda “Texnologik mashina va jihozlarda energiya rekuperatsiyasi” mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va bu izlanishlar natijalari ta’lim jarayonlarida ham qo‘llanilmoqda. Talabalarning kafedraning yetuk professor-o‘qituvchilar rahbarligida ushbu mavzulardagi ilmiy izlanishlarda qatnashishi ularga keljakda ilmiy faoliyat olib borishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

